



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th January, 2025

"MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIK O'ZBEK XALQINING YUksAK QADRIYATIDIR"

Abdurazzoqov Asilbek

Qashqadaryo viloyat Qamashi tumani 89- umumiyl o'rta ta'lif
maktabining Ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik o'zbek xalqining yuksak qadriyatidir. Bizning maqsadimiz nimadan iboratdir. Biz buni ko'plab amaliy bajarilgan ishlar bilan yoritilib berilgan.

Kalit so'zlar : Bag'rikenglik, do'stlik, mehr -oqibat , hurmat , e'tibor, sharoit , imkoniyat.

Kirish: Millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik deganda biz nimani tushunamiz? Shu savolga javob beraylik. Biz tug'ilib voyaga yetgan joy bu Vatan hisoblanadi. Onamizni qanday yaxshi ko'rsak . Vatanni ham shunday yaxshi ko'rishimiz va qadriga yetmog'imiz kerak. O'zbekistonda o'zbek millatidan tashqari boshqa millat vakillari ham istiqomat qilib kelmoqdadir. Shunday ekan biz ular bilan tinch totuv hayot kechirishimiz va ular bilan do'stona munosabatda bo'lishimiz hurmat e'tibor qilishimiz kerak. So'nggi yillarda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri - jamiyatda millatlararo totuvlik va bag'rikenglikni ta'minlash , do'stlik muhitini va ko'p millatli katta yagona oila tuyg'usini mustahkamlash , yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan keng miqyosdagi ishlar amalga oshirildi.

Asosiy qisim : O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoidalari turmushga faol tatbiq etilmoqda, bu qoidalalar O'zbekiston Respublikasining fuqarolari millatidan qat'iy nazar O'zbekiston xalqini tashkil etishini, shuningdek , mamlakat hududida yashovchi, millat va elatlarning tili, urf -odati va an'analariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni kafolatlaydi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Muhtaram Prezidentimizning 2017yil 7-fevraldagagi Farmoniga muvofiq tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" da ham aynan beshinchi ustuvor vazifa



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th January, 2025

sifatida xavfsizlik , millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.Bag'rikenglik qon -qoniga singib ketgan xalqimiz azal -azaldan turli millat vakillari bilan og'a -inilardek ,do'st -birodar bo'lib yashagan .Yurtimzning barcha hududlarida bo'lgani kabi Qashqadaryo viloyatida ham 30 dan ortiq turli millat va elat vakillari o'zaro tinch-totuv, birdamlik,bahamjihatlikda yurt navnaqi, el farovonligiga munosib hissa qo'shib yashab kelmoqdalar.Ularning huquq va erkinliklari,qonuniy manfaatlarini ta'minlash ,ta'lim olishlari,o'z qiziqish va layoqatlari bo'yicha kasb-hunar egallashlari, madaniyat ,urf-odat, an'analarini saqlash hamda rivojlantirishlari uchun barcha zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilgan.Barcha millat vakillari davlat boshqaruvi iqtisodiy -ijtimoiy hamda madaniy jarayonlarda keng va erkin ishtirok etmoqda .Ayni paytda viloyatda 6ta ya'ni Rus ,Tatar -Boshqird,Turkman,Tojik ,Arab milliy madaniy markazlari hamda Tojik markazining Dehqonobod tumani bo'limi faoliyat yuritib kelmoqda.

Ayni paytda mamlakatimizda 130 dan ziyod millat va elat ,16 ta diniy konfessiya,153 ta milliy -madaniy markaz,38 ta "Do'stlik "jamiyati vakillari teng huquqli hamda o'zaro hamjihatlikda ahil -inoq yashab kelmoqda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita hamda O'zbekiston Xalqaro islam akademiyasi hamkorligida " Diniy , bag'rikenglik dindorlarning huquq va erkinliklarini ta'minlashning siyosiy va huquqiy jihatlari milliy tarjiba" mavzusida tashkil .Etilgan mintaqaviy videokonferensiya bu boradagi hamjihatlikni yana-da mustahkamlashga bag'ishlanadi.Tadborda yurtimizdag'i tegishli idora va tashkilotlari,Qozog'iston, Tojikiston ,Qirg'izistondan turli diniy konfessiya vakillari ishtirok etgani uning ko'lamiyu nufuzini kengaytirdi.O'zbekistonda turli konfessiya,dinlar millatlararo totuvlik ,inoqlik muhiti ,madaniyati,shakllangan deydi.Yahudiy diniy jamoalari Toshkent jamoatchiligi raisi Arkadiy Isaxarov.- Buning negizida asrdan asrga o'tib kelayotgan qadriyatlar an'anlar mujassam .Buyuk ipak yo'li chorrahasida joylashgan O'zbekiston turli millat va diniy vakillari uchun madaniyat markazi bo'ldi.Xalqning bag'rikenglik ,mehmondo'stlik kabi fazilatlari tufayli bu jarayon yana-da oson kechdi.Oxirgi yillarda diniy -marifyi sohada Prezident Shavkat Mirziyoyevning o'ziga xos yondashuvlari asosida ijtimoiy ma'naviy muhit tubdan o'zgardi -deydi .O'zbekistondagi Rim katolik cherkovi rahbari ,Yepiskop Yeji Matsulevich .Eng avvalo ,diniy tashkilotlar jamiyat



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th January, 2025

taraqqiyoti va yurt tinchligida o'ziga xos muhim o'rin tutadigan mavqega ega bo'ldi .Bunda insonning boshqa din o'zga madaniyat ,alohida insonni ,hurmat qilish,o'z birodaridek qabul qilish ko'nikmasi shakllandi .YUNESKO Bosh konferensiyasining 1995 yil 16 noyabrda bo'lib o'tgan 28 sessiyasida Bag'rikenglik tamoyillari to'g'risidagi Deklaratsiya qabul qilingan edi.Shundan buyon mazkur sana "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida nishonlanib kelinadi.Bundan ko'zlangan asosiy maqsad dunyo xalqlarini bag'rikenglikka tinchlikni asrab -avaylashga hamda ijtimoiy -iqtisodiy farovonlikka erishishga chorlashdir.

"O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib ,jinsi,irqi millati,tili,dini, ijtimoiy kelib chiqishi,e'tiqodi,shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar ,qonun oldida tengdirlar "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasidan.Hozirgi notinch va tahlikali zamonda insoniyat duch kelayotgan murrakkab .muammolar,xavf -xatarlarni birgalikda bartaraf etishda ,turli tahdidlarning oldini olishda qo'shni mamlakatlar bilan birgalikda nufuzli Xalqaro tashkilotlarning say -harakatlarini birlashtirishni bugun hayotning o'zi taqozo etmoqda O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlarining o'zaro do'stligi qanchalik mustahkam bo'lsa ,davlatimiz ham shuncha mustahkam bo'ladi.Millatlararo totuvlik, o'zaro do'stlik rishtalarini yana-da mustahkamlash haqida 2020 yil 29-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning oliy Majlisga navbatdagি murojaatida ham ta'kidlandi.Murojaatnomada 30 iyul -Xalqaro do'stlik, Do'stlik Xalqaro forum-festivalini o'tkazish taklifi ilgari surildi.Shuningdek , "Xalqlar do'stligi" ko'krak nishonini ta'sis etish haqidagi tashabbus ham qo'llab - quvvatlandi.Darhaqiqat,mamlakatimizda yashayotgan barcha millat va elatlar vakillari yaxlit holda O'zbekiston xalqini tashkil etadi.Ular bir -birlari bilan hamjihat bo'lib ,yurtimiz ravnaqi yo'lida sidqidildan mehnat qilmoqdalar zero, bag'rikenglik tinchlikning bosh mezoni bo'lsa,tinchlik yuksak taraqqiyot garovidir.

Xulosा: Yurtimizda millatlararo va davlatlararo totuvlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan yangi g'oya va tashabbuslarning paydo bo'layotganligi do'stlik va hamjihatlik qo'rg'onining yanada mustahkam bo'lishiga xizmat qiladi.Yurtimizda yashayotgan barcha millat va elat vakillari yaratilgan



E CONF SERIES



International Educators Conference

Hosted online from Toronto, Canada

Website: econfseries.com

7th January, 2025

imkoniyatdan ko'ngli to'q buni biz yuzidagi tabassumi orqali bilib olishimiz mumkin. Shunday ekan ko'ngilni keng qilib bir birimizga har doim e'tibor, hurmat mehr- oqibatda bo'lishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) www.google.com.
- 2) Xalq so'zi.
- 3) Shodmonov Davron. "Yuksalish "umummilliy harakati Qashqadaryo viloyati hududiy bo'linmasi rahbari.
- 4) Munojat Mo'minova. "Yangi O'zbekiston" muxbiri.
- 5) Omonulla Fayziyev . "Xalq so'zi "muxbiri.